

## TA'LIM JARAYONIGA KREDIT-MODUL TIZIMINI TASHKIL ETISH TARTIBI

**Azimova Firuza Kamolovna –**

Buxoro muhandislik-texnologiya

instituti o'qituvchisi .

E-mail: firuzaazimova1993@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kredit-modul tizimi va uning O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etilishi, ahamiyati, dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimida kredit -modul tizimining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va 78 afzalliklari haqidagi fikrlar bayon etish va bu tizimiga o'tishdan maqsadi, kvalimetriya fani va uni amaliyotga tadbiq qilinishi, kvalimetriyada kredit modul tizimini qo'llash va talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini orttirish kabi dolzarb muammolar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA( xalqaro talabalarni baholash dasturi), kredit-modul tizimi, kvalimetriya, pedagogik jarayonlar, monitoring TIMSS( xalqaro matematika va fanni o'rganish tendentsiyalari), TALIS (xalqaro so'rovni o'qitish va o'rganish).

**Kredit-modul tizimi**, bu - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida [baholash modeli](#) hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning [mustaqil](#)

[ishlashini](#) ta'minlash; talabalar bilimini [reyting](#) asosida baholash Ta'limning kredit-modul tizimi o'zi nima? Mazkur tizimning an'anaviy ta'lim tizimidan afzalliklari nimada va nimalarni bajarishni talab qiladi? Quyida ushbu qiziqishlaringizga javob topishingiz mumkin.

Ta'limning kredit-modul tizimi o'zi nima? Bizga bilamizki, bizning hayotimizda ko'plab fizikaviy o'lchov birliklari mavjud. Masalan, vaqt o'lchov birligi — sekund, soat, uzunlik o'lchovi — metr, kilometr, og'irlik — kilogramm, tonna, suyuqlik — litr, m<sup>3</sup>, elektr quvvati— vatt kabi bir qanchasini sanab o'tishimiz mumkin.

Bizda o'z-o'zidan savol tug'iladiki: ta'limning ham, ya'ni, oliy ta'limning ham o'lchov birligi bormi? Ushbu savolga har kim har xil javob berishi tabiiy albatta, kimdir ta'limdagi mutaxassisliklarni tushunsa, kimdir esa darajasiga qarab deya javob beradi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash

Kredit-modul tizimiga o‘tishdan maqsad nima? Ushbu tizimga o‘tishning asosiy

maqsadi: mamlakatimizda sifatli ta’limni tashkil etish va talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirishdir. Xo‘sh, ta’limning sifatini baholash qanday ta’limot asosida tashkil etiladi?

Buning uchun obyekt va jarayonlarning sifatini baholashga mo‘ljallangan kvalimetriya fani haqida ma’lumot berilishi lozim. Kvalimetriya bu — tabiatdagi barcha obyektlarning va jamiyatda sodir bo‘ladigan jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini baholash muammolari hamda metodologiyasini o‘rganuvchi fan bo‘lib, lotincha “quails” — sifat, qadimiy yunoncha “metros” — o‘lchov degan ma’noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini baholash metodlarini o‘zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog‘idir. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; talabalar bilimni [reyting](#) bali asosida baholash;

talabalarga o‘zlarining [o‘quv rejalarini](#) individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish; ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;

ta’lim dasturlarining qulayligi va [mehnat bozorida](#) mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi. Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko‘rsatkichlari ikkita yirik guruh — tabiiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarga ajratib o‘rganiladi. Tabiiy ko‘rsatkichlar, o‘z navbatida, o‘rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko‘rsatkichlariga ajratiladi.

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea - hodisalar, ishlab chiqarish va iste’mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqeyi va o‘rni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga nisbatan qo‘llaniladi.

Kredit-modul tizimi ham Kvalimetriya fani asosida tashkil etilgan, kvalimetriyaning ijtimoiy ko‘rsatkichlarning pedagogik jarayonlarga, savodxonligiga va shaxs kamolotiga nisbatan qo‘llaniladigan sifatli ta’limni ta’minlovchi tizim hisoblanadi.

Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlit o'rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi. Kredit-modul tizimida esa ushbu baholashning umumiy tartibi amalga tadbiiq etiladi va samarali qo'llaniladi. Demak, kvalimetriya ta'limning sifatini baholasa, kredit-modul tizimi esa ta'limni sifatli tashkil etish uchun qo'llaniladi degan xulosaga kelinadi.

Obyekt va mahsulotlar sifatini tashxislash va miqdoriy baholash XV asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, dastlab hunarmandlar o'z mahsulotlari sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlarni aniqlagan va sifat belgilarini qo'ya boshlagan. 1549-yili Italiyadagi Paduan universitetida dastlabki "Tovarshunoslik" kafedraasi tashkil etilgan.

XX asr boshlarida AQSh va Yevropa mamlakatlarida obyekt va mahsulotlarni ballar vositasida baholash va standartlashtirish yo'lga qo'yildi. Shu tariqa boshqa mamlakatlarda ham sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash borasida muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu harakatlar kvalimetriyaning ilmiy fan sifatida maydonga chiqishiga va tadqiqot ko'lami kengayishiga turtki bo'ldi. XX asr boshida ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini, keyinchalik kompetensiyasini nazorat qilish, baholash yo'lga qo'yilgan. O'sha davrda Rossiya ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunining g'oyaviy-siyosiy yo'nalishiga urg'u berilib, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga asoslangan nazariy tizim yo'lga qo'yilgan, nazariy reproduktiv bilim, ko'nikma va malakani nazorat qilish, ta'lim - tarbiyaning yakuniy natijasi sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Pedagogik kvalimetriyaning eng yangi rivojlanish davrida tahsil oluvchilar shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi maydonga chiqdi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, pedagogik munosabatlar insonparvarlashtirilgan, ta'lim oluvchining qiziqishi, ehtiyoji, ichki va tashqi o'quv motivlari e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish nazariyasi turadi. Ushbu nazariyadan kelib chiqib, kredit modul tizimida ta'lim oladigan talabalar o'qishning dastlabki yillarida soha bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lgandan so'ng talabalarda ayrim yo'nalish va fanlar bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lish va kelajakda shu yo'nalishda ishlashga ishtiyoq paydo bo'lishi tabiiy. Talabalar yildan yilga mutaxassis sifatida shakllanib borar ekan, ular uchun o'qish dasturidagi ayrim fanlarning ahamiyati ortib, ayrim fanlarning ahamiyati kamayib boradi.

Hozirga qadar universitetlar qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlari asosida ish yuritar, ya'ni, talabalar o'qishga kirgandan boshlab to bitirgunga qadar dasturda belgilangan barcha fanlarni o'rganishga majbur edi. Bu qay darajada to'g'ri? Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar qat'iy belgilangan standart o'quv dasturi asosida ta'lim olishi shartmi? Dasturdagi barcha fanlar har bir talabaning qiziqishlari,

kelajak rejalariga to'g'ri kelmasa-chi? Aslida, har bir talaba o'z qiziqishlari, imkoniyatlari, kelajakda qaysi kasbni egallashi va bu uchun kerakli fanlarni universitet ma'muriyatidan ko'ra yaxshiroq biladi. Talabani majburlab xonada olib o'tirish mumkin, lekin uning fikr va e'tiborini xonada ushlab o'tirib bo'lmaydi. Bunga yechim sifatida kredit-modul tizimi yo'lga qo'yildi. Kredit-modul tizimiga o'tishning muhim jihatlaridan yana biri bu — *o'quv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishidir*. Unga ko'ra, talabalar o'qishning dastlabki yillarida sohaga oid asosiy, umumkasbiy fanlarni o'zlashtirib, soha bo'yicha umumiy bilimni egallab olganlaridan so'ng, sohaga oid maxsus fanlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'zlari tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda oliy ta'lim muassasalari talabalarga o'quv yili davomida taklif qilinayotgan tanlov fanlarning ro'yxatini va ular haqida batafsil ma'lumot taqdim etadi. Talabalar esa ushbu ro'yxat va ma'lumotlar asosida o'zlari qiziqqan fanlarni tanlaydilar. Bu jarayon har bir talaba o'zining bakalavriat yoki magistratura o'qish dasturini ma'lum ma'noda o'zi shakllantirishiga imkon yaratadi. Ya'ni, guruhda 50 nafar talaba bo'lsa, ularning har biri o'z qiziqishlariga ko'ra o'z o'qish dasturlariga ega bo'lishadi. Tanlov fanlari soni kursdan kursga ko'payib borishi zarur bo'ladi. Chunki talaba kursdan kursga o'tgani sari mutaxassis sifatida shakllanib boradi va unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanib boradi. Oliy ta'lim muassasalari esa asta-sekinlik bilan talabalarga o'z fakultetlaridan tashqarida, ya'ni boshqa fakultetlardan ham tanlov fanlari olishga imkoniyat yaratishlari zarur.

Fanlarni tanlash amaliyoti nafaqat talabalar uchun o'zlari xohlagan yo'nalish bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga imkoniyat yaratadi, balki oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturidagi fanlar tarkibi tabiiy ravishda saralanib borishiga ham xizmat qiladi. Chunki talabalar qiziqish va ehtiyojlariga javob bermaydigan fanlar dasturini tark etib borishadi, o'rganayotgan fanlari ro'yxatini davr talablari va qiziqishlariga moslashtirishadi. Bunda o'qituvchi uning fani o'ziga yetarli miqdorda talabalarni jalb qila olishi uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, fanning talabalar uchun ahamiyatini saqlab qolish uchun darslar sifatini doimiy ravishda yaxshilab borishi zarur bo'ladi. Aks holda ushbu fan o'quv dasturidan chiqib ketishi va o'qituvchi o'z ishini yo'qotib qo'yishi mumkin bo'ladi. Bu jarayon darslar sifati yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Fanlari tanlash amaliyoti rivojlangan davlatlarda o'zining foydasini isbotlagan amaliyotdir. Ulardagi fan taraqqiyoti, rivojlangan iqtisodiyot, mutaxassislarning salohiyati xususan ta'limdagi aynan shu jihat bilan ham bog'liq. Shunisi aniqki, kredit-modul tizimi tarixi, uning paydo bo'lishi fanlarni tanlash amaliyoti bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, kredit-modul tizimining yuzaga kelishiga tanlov fanlari amaliyoti sabab bo'lgan. Shunday ekan, agar oliy ta'lim muassasalari o'zida kredit-modul tizimini joriy etsa-yu, o'quv dasturlariga fanlarni tanlash imkoniyatini olib kirmasa, ushbu oliy ta'lim muassasalari tom ma'noda kredit-modul tizimida faoliyat yurityapti, deb bo'lmaydi. Ushbu paradigma

asosida pedagogik kvalimetriyada, shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimida ijobiy o'zgarishlar vujudga keldi.

**Ular:** • ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi va moslashuviga asoslangan frontal ta'lim - tarbiyadan shaxsning individual rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga o'tish;

- ta'lim oluvchilarda umummadaniy, umuminsoniy qadriyatlar asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni qaror toptirish;

- majburiy o'qitish shakllari bilan birga ta'lim oluvchilarni mustaqil ta'limga va tayyorgarlikka yo'naltirish;

- ta'lim mazmunidagi bilim, ko'nikma va malaka, ijodiy faoliyatga xos tajriba va qadriyatni qaror toptirishda o'quv kurslarining nazariy masalalari asosida emas, balki integrallashgan mazmun, fanlararo bog'lanish, modullar tizimidan foydalanishga o'tish;

- o'qitishning reproduktiv metodlari va an'anaviy texnologiyalari bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradigan innovatsiya va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasini nazorat qilish va baholashda bilim, ko'nikma va malaka paradigmasidan voz kechib, ta'lim tizimini modernizatsiyalashning istiqbolli yo'nalishi sifatida qabul qilingan kompetensiyalarni nazorat qilish orqali shaxsning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilishi nazarda tutilgan ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, bilim oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasini baholash jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi. Ta'limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta oliy o'quv yurtida olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin. Ushbu tizimning samarali tashkil etilishi o'zbekistonlik talabalarning akademik mobillashuviga handa ilg'or xorijiy universitetlarda o'qishini davom ettirishiga imkoniyat yaratadi. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: — o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; — bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; — talabalar bilimini reyting bali asosida baholash; — talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish; — ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish; — ta'lim dasturlarining

qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi. Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'z - lashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Shuningdek, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi. O'qitishning kredit tizimining asosiy afzalliklari:

Akademik mobillik - talabaning ta'lim jarayoni davrida chet el o'quv yurtlarida yoki o'zga ta'lim yurtida ta'lim olib so'ngra o'qishni davom ettira olishi;

Ta'lim sifatini yuqori darajadali - o'quv jarayonida chet el o'quv yurtlari va tashqi muassasalardan o'z sohasini mukammal o'zlashtirgan mutaxassislarni jalb etilishi;

Ta'lim jarayonini jadalligini ta'minlash maqsadida chet el oliy ta'lim muassasalari amaliyotidan kelib chiqqan holda, o'quv dasturlarini ishlab chiqilganligi;

Talabalar istagidan kelib chiqqan holda, fan tanlash imkoniyatiga egaligi va hakazolar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash muhimki, oliy ta'limda o'qitishning kredit tizimni tadbiiq qilinishi hozirgi o'zgaruvchan xalqaro mehnat bozorida raqobatlasha oladigan oliy toifali mutaxassislarni tayyorlash hamda umumjahon oliygohlar reytingida yuqori 1000 talikka kirishga imkon yaratadi.

<p>Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishida kredit sisitemasining o'rniva ahamiyati. Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: to'plam №3. Toshkent 2015. 52-b.</p>	<p>Tajiyev M. Mamadaliyev K. Khurramov A. The role and importance of credit sisitema in the development of the system of higher education of developed foreign mamalakats. Prospects for the development of Higher Education: collection No. 3. Tashkent 2015. 52 p.</p>
<p>O'.Asqarova, M.Nishonov, M. Xayitbaev - Pedagogika T., - Talqin 2008 y.</p>	<p>O'.Askarova, M.Nishanov, M. Khayitbaev- Pedagogical T.,- Interpretation 2008.</p>
<p>M.To'xtaxo'jayeva - Pedagogika T., - O'qituvchi 2010 y.</p>	<p>M.To khtakhojayeva-pedagogical T.,- Teacher 2010.</p>
<p>O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva - Ta'lim metodlari o'quvuslubiy qo'llanma, - Navro'z nashriyoti, Toshkent - 2017.</p>	<p>O.U.Avlayev, S.N. Zhurayeva, S.P.Mirzayeva-educational methods Training Club manual, - Navruz publishing house, Tashkent - 2017.</p>
<p>Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. - Toshkent, Fan va texnologiya. 2010.</p>	<p>Theory and history of pedagogy. R.Mavlonova et al. - Tashkent, Science and technology. 2010.</p>
<p>Монгуш М.В. Модульно-рейтинговая система контроля качества знаний студентов // Вестник педагогической инновации / Новосибирский государственный педагогический университет. - 2007.</p>	<p>Mongush M.V. Modular rating system of quality control of students' knowledge // Bulletin of pedagogical innovation / Novosibirsk State Pedagogical University. - 2007.</p>
<p>Сазонов Б.А. Болонский процесс: актуальные вопросы модернизации российского высшего образования. - М.: Федеральный институт развития образования, 2006.</p>	<p>Sazonov B.A. The Bologna process: current issues of modernization of Russian higher education. - M.: Federal Institute of Education Development, 2006.</p>

